SIRDARYO VILOYATI SIRDARYO TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 25 - mart 101-9-128-Q/22 Sirdaryo tuman hokimligi

Sirdaryo tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi, “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-son qaroriga asosan tuman hududidagi dafn etish joylarini saqlash hamda obodonlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6, 25-moddalari asoslanib,**qaror qilaman:**

1.Sirdaryo tumani qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimi birinchi o‘rinbosari Sh.Xakimov tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (N.Muratov) zimmasiga:

- fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

- sanitariya qoidalari va me’yorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirsin.

3. Tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi (N.Muratov) hamda qabristonlarning ma’muriyati zimmasiga:

- xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini;

- qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, obyektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

4. Tuman hokimligi Axborot xizmati (S.Jo‘raboyev) qaror matnini hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin hamda “Sirdaryo” gazetasi tahririyati (A.Burliyev) ushbu qaror matnini “Sirdaryo” gazetasida chop etilishi tavsiya etilsin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi birinchi o‘rinbosari Sh.Xakimov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **B.Mirzaqulov**

Sirdaryo tuman hokimining
2022 yil 25 martdagi
101-9-128-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Sirdaryo tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha

TARIFLAR MIQDORI

T\r	Xizmat turi	O‘lchov birligi	BHMga nisbatan (foiz xisobida)
1.	Go'r qazish	1 o‘ringa	30%
2.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 o‘ringa	bepul
3.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	bepul
4.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 o‘rin/kunga	bepul

Izoh: *Sirdaryo tumanida qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori* BHM *ortishiga mutanosib ravishda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ta’riflar miqdori ham ortadi.*